TIJORAT BANKLARI KREDIT OPERATSIYALARI VA MUAMMOLI KREDITLARINING PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI

Sabirova Lobar Baxramovna
Urganch Innovatsion universiteti, v.b. dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.19647515

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida kredit portfeli va muammoli kreditlar dinamikasi tahlil qilinib, ularning bank tizimi barqarorligiga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotda 2020–2024-yillar statistik ma’lumotlari asosida muammoli kreditlarning o‘sish tendensiyalari aniqlangan hamda Seasonal ARIMA (SARIMA) modeli yordamida 2025–2028-yillar uchun prognozlar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijasida kredit portfeli hajmi barqaror o‘sishi bilan birga muammoli kreditlar ham ortib borayotganligi aniqlanib, kredit risklarini boshqarish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.*

Abstract. *This article analyzes the dynamics of credit portfolios and non-performing loans (NPLs) in the commercial banking system of Uzbekistan and evaluates their impact on financial stability. Based on statistical data for 2020–2024, trends in the growth of problem loans are identified. Using the Seasonal ARIMA (SARIMA) model, forecasts for 2025–2028 are developed.*

The results show that while the total volume of bank credit is expected to grow steadily, the volume of non-performing loans will also increase, indicating the need for improved credit risk management. The study proposes scientifically grounded recommendations aimed at enhancing the quality of loan portfolios, including diversification strategies, implementation of credit scoring systems, and strengthening monitoring mechanisms.

Kalit so‘zlar: *kredit portfeli, muammoli kreditlar (NPL), SARIMA modeli, kredit riski, tijorat banklari, prognozlash, bank barqarorligi.*

Keywords: *credit portfolio, non-performing loans (NPL), SARIMA model, credit risk, commercial banks, forecasting, financial stability*

Tijorat banklarining asosiy faoliyati – bu kreditlash jarayoni bo‘lib, u banklarning daromadlarining muhim manbaidir. Biroq, berilgan kreditlarning hammasi ham o‘z vaqtida va to‘liq qaytarilmasligi mumkin. Bunday hollarda, ular muammoli kreditlar (ya’ni, kechiktirilgan, qaytmas yoki potentsial xavf ostidagi kreditlar) sifatida tasniflanadi. Muammoli kreditlarning ortishi bankning umumiy kredit portfeli sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki bunday kreditlar bank daromadlarining pasayishiga va kredit risklarining ortishiga olib keladi. Bu holat, o‘z navbatida, bankning likvidlik darajasiga, moliyaviy barqarorligiga va investitsiya imkoniyatlariga jiddiy tahdid soladi. Ayniqsa, kreditlar bo‘yicha zaxiralar ajratish talabi tufayli bank kapitali kamayadi, bu esa yangi kreditlash hajmining qisqarishiga olib keladi.

Muammoli kreditlarning yuqori ulushi bank portfeli diversifikatsiyasiga va kredit siyosatining samaradorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda banklar kreditlash mezonlarini yanada qat'iylashtiradi, risklarni kamaytirish uchun ko‘proq garov va kafolatlar talab qiladi, bu esa o‘z navbatida iqtisodiyotdagi faol tadbirkorlik sub’yektlari uchun kredit resurslariga kirishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, muammoli kreditlar moliyaviy hisobotlarda aktivlarning

sifatsizligini oshiradi va investorlarda hamda xalqaro reyting agentliklarida bankka bo‘lgan ishonchni pasaytiradi. Bu holat bankning xorijiy moliya bozorlarida mablag‘ jalb qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Shuning uchun muammoli kreditlarni erta aniqlash, monitoring qilish va ularni samarali boshqarish har bir tijorat bankining ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston bank tizimida kreditlash faoliyati kengayib, iqtisodiyotni moliyalashtirish hajmi ortgan bo‘lishiga qaramay, muammoli kreditlar hajmining o‘sishi ushbu yo‘nalishdagi tizimli muammolarni ko‘rsatmoqda. 2020-yil boshida jami muammoli kreditlar hajmi 5 021,2 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 17 211,7 mlrd so‘mga yetgan. Bu esa ikki yil ichida muammoli kreditlar hajmining qariyb 3,5 baravarga oshganini anglatadi. Ushbu keskin o‘sish pandemiya davridan so‘ng korxonalar moliyaviy barqarorligining zaiflashgani, aholining to‘lov qobiliyatining pasaygani va ayrim banklar tomonidan kreditlash siyosatida risklar yetarlicha baholanmaganligini anglatadi. Ayniqsa, 2022-yildagi 5,3 foizlik muammoli kreditlar ulushi banklar uchun xavfli signal bo‘lib xizmat qilgan.



-rasm. Muammoli kreditlarning bank tizimiga ta’siri, (mlrd.so‘mda)

Bunday o‘zgarishlar nafaqat kredit portfeli sifatiga, balki banklarning kapital yetarliligi darajasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, 2022-yilda muammoli kreditlarning bank kapitaliga nisbati 24 foizga yetdi, bu esa har to‘rt so‘mlik kapitalga bir so‘mdan ortiq muammoli kredit to‘g‘ri kelganini ko‘rsatadi. Bunday disproportsiya moliyaviy barqarorlik uchun jiddiy xavf tug‘diradi, chunki bank kapitalining muammoli kreditlar bilan haddan tashqari yuklanishi likvidlik inqiroziga sabab bo‘lishi mumkin. 2023 va 2024-yillarda ushbu ko‘rsatkich nisbatan pasaygan bo‘lsa-da (18,5% va 17,1%), bu holat muammoli kreditlar butunlay bartaraf etilganini anglatmaydi. Aksincha, bu o‘zgarishlar muammoli kreditlar hajmi biroz qisqargani yoki bank kapitalining ko‘paygani bilan izohlanishi mumkin.

2024-yil boshidagi holatga ko‘ra, jami muammoli kreditlar hajmi 16 621 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lib, bu 2023-yilga nisbatan biroz o‘sishni ko‘rsatadi. Bu holat banklar tomonidan kredit risklarini baholash tizimlarining hali ham mukammal emasligini anglatadi. Shu bilan birga, kredit

portfelidagi muammoli kreditlar ulushi 3,5 foizgacha pasaygani, muayyan darajada kredit portfelining sifati yaxshilanishini ko‘rsatsa-da, bu o‘sish sur'atlari barqaror ekanligini anglatmaydi. O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy o‘sishning asosi bo‘layotgan bank sektorining barqarorligini ta’minlash uchun, muammoli kreditlar yuzaga kelishiga olib keluvchi omillarni chuqur tahlil qilish, ularni oldindan aniqlash va ehtimoliy xavflarni minimallashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish nihoyatda muhimdir. Bu yo‘lda zamonaviy kredit skoring tizimlari, mijozlar monitoringi va ekonometrik prognozlash usullarini keng joriy etish dolzarb masalaga aylangan.

2020–2024 yillar davomida kapitalida davlat ulushi mavjud tijorat banklaridagi muammoli kreditlar hajmi keskin o‘zgaruvchanlikni ko‘rsatdi. 2020-yilda bu ko‘rsatkich 4 620 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 15 289,8 mlrd so‘mga yetdi — bu qariyb uch baravar o‘sish degani. Muammoli kreditlarning ushbu banklar kredit portfelidagi ulushi ham xuddi shunday keskin oshib, 2022-yilda 5,5 foizga yetgan. Ushbu o‘sish mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash va aholining ehtiyojlarini moliyaviy resurslar orqali ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatining iqtisodiy xarajatlari bilan izohlanadi. Ayniqsa, pandemiya yillarida davlat ulushiga ega banklar ijtimoiy yo‘naltirilgan kreditlar — ya’ni, imtiyozli foiz stavkalari asosida aholi, yoshlar, kichik biznes va qishloq xo‘jaligi sub’yektlariga ajratilgan kreditlar tufayli yuqori risklarga duch keldi.



-rasm. Kapitalida davlat ulushi mavjud banklarda muammoli kreditlar dinamikasi (mlrd.so‘mda)

Davlat ulushi mavjud banklarning muammoli kreditlari ulushi yuqoriligiga sabab sifatida ularning bozor tamoyillariga to‘liq asoslanmagan holda faoliyat yuritishi ko‘rsatiladi. Bunday banklar ko‘pincha hukumat topshirig‘i asosida subsidiyalashtirilgan yoki garovsiz kreditlar ajratishga majbur bo‘ladi. Bu esa kredit oluvchilarning to‘lov qobiliyati yetarli darajada tahlil

qilinmasligiga, moliyaviy monitoringning sust bo‘lishiga olib keladi. 2022-yilda ushbu banklardagi muammoli kreditlarning ularning kapitaliga nisbati 26,2 foizga yetgani — ya’ni har to‘rt so‘mlik kapitalga bitta muammoli so‘m to‘g‘ri kelgani — bu risklarning jiddiyligini ko‘rsatmoqda. Shundan keyingi yillarda ko‘rsatkich biroz pasaygan bo‘lsa-da (2024-yilda 21,0%), bu hali barqarorlikka erishilganini anglatmaydi, aksincha, tizimdagi tizimli xatarlar saqlanib qolayotganini bildiradi.

Kapitalida davlat ulushi mavjud banklarda muammoli kreditlar hajmining yuqoriligi O‘zbekiston bank tizimida islohotlar zarurligini ko‘rsatadi. Banklar faoliyatini bozor tamoyillariga asoslash, kredit siyosatini risklar asosida shakllantirish, ijtimoiy yo‘naltirilgan dasturlarni alohida moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish zarur. Davlat topshiriqlarining bank tizimiga bevosita yuklanishi o‘rniga, bunday moliyalashtirishni davlat kafolati yoki budjet resurslari orqali amalga oshirish ko‘proq maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aks holda, davlat ulushiga ega banklar doimiy ravishda muammoli kreditlar xavfi ostida qolaveradi va bu banklarning sog‘lom raqobat muhiti shakllantirishdagi rolini pasaytiradi. Shu bois, bu banklar faoliyatini optimallashtirish orqali umumiy bank tizimining barqarorligini oshirish mumkin bo‘ladi.



-rasm. O‘zsanoatqurilishbankda muammoli kreditlar dinamikasi (mlrd.so‘mda)

2020–2024 yillar davomida O‘zsanoatqurilishbankda muammoli kreditlar hajmi va ularning bank kredit portfelidagi hamda kapitalga nisbatan ulushi muayyan o‘zgarishlarga uchradi. 2020-yilda atigi 331,6 mlrd so‘mlik muammoli kreditlar qayd etilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilda 1 575,1 mlrd so‘mga yetgan. Bu davr mobaynida bank kredit portfelida muammoli kreditlar ulushi 1 foizdan 3,8 foizgacha, muammoli kreditlarning bank kapitaliga nisbati esa 5,1 foizdan 21,1 foizgacha oshgan. Ayniqsa, 2021–2022 yillarda bank tomonidan qurilish, sanoat va ishlab chiqarish sohalariga ajratilgan yirik loyihaviy kreditlar to‘liq tahlil qilinmasdan taqdim etilgani ehtimoli yuqori, bu esa risklarni kuchaytirgan.

2023–2024 yillarda muammoli kreditlar hajmi biroz qisqargani (2024-yilda 1 283 mlrd so‘m) va kredit portfelidagi ulushi pasaygani kuzatiladi. Bunda bank tomonidan amalga oshirilgan risklarni boshqarish siyosatining mustahkamlanishi, kredit monitoringi jarayonlarining kuchaytirilgani va qayta moliyalashtirish mexanizmlarining tatbiq etilgani muhim rol o‘ynagan bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, muammoli kreditlarning bank kapitaliga nisbati 2023-yilda 21,6% ni, 2024-yilda esa 14,7% ni tashkil etgani bank moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xavf omillarining saqlanib qolayotganini bildiradi. Bu holat O‘zsanoatqurilishbank uchun kredit siyosatini chuqur tahlil asosida yuritish, yuqori riskli sohalarda kreditlash hajmini cheklash va ta’minotli kreditlar ulushini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

2020–2024 yillar davomida Trastbankda muammoli kreditlar hajmi va ularning bank faoliyatiga ta’siri o‘zgaruvchanlik kasb etdi. 2020-yilda atigi 29,9 mlrd so‘mlik muammoli kreditlar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 50,6 mlrd so‘mga oshgan, bu esa kredit portfelidagi ulushning 1,7 foizdan 2,3 foizga ko‘tarilishiga olib kelgan. 2022-yilga kelib esa muammoli kreditlar hajmi deyarli o‘zgarmagan holda 53,0 mlrd so‘mni tashkil etgan, lekin ulushi 1,9 foizgacha pasaygan. Bu ko‘rsatkichlar Trastbank tomonidan kreditlar monitoringi va xavf tahlilida nisbatan ehtiyotkorlik bilan ish yuritilganini bildiradi. Ayniqsa, muammoli kreditlarning bank kapitaliga nisbati 2022-yilda 4,3 foizgacha tushgani bankning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin.



-rasm. Trastbank XABda muammoli kreditlar dinamikasi (mlrd.so‘mda)

Biroq 2023-yilda Trastbankda keskin o‘zgarish kuzatildi — muammoli kreditlar hajmi to‘satdan 207,6 mlrd so‘mga oshib, kredit portfelidagi ulushi 5,9 foizga yetdi. Bu bank uchun sezilarli og‘ish bo‘lib, muammoli kreditlarning bank kapitaliga nisbati ham 12,3 foizgacha oshdi. Bunday holatga ehtimoliy sabab sifatida kredit siyosatidagi liberal yondashuv, yangi yirik

loyihalarni moliyalashtirishdagi risklarni yetarlicha tahlil qilmaslik yoki ayrim tarmoqlarda qarzdorlarning to‘lov qobiliyatining pasayishi ko‘rsatilishi mumkin. Shunga qaramay, 2024-yilda bank bu holatni nazorat ostiga olgan ko‘rinadi — muammoli kreditlar hajmi 101,0 mlrd so‘mga tushgan, portfeldagi ulushi esa 2,0 foizgacha kamaygan. Kapitalga nisbati ham 4,5 foizga pasaygan bo‘lib, bu bank tomonidan risklarni boshqarish bo‘yicha ko‘rilgan choralar samaradorligini aks ettiradi. Kelgusi yillarda Trastbank ushbu ijobiy tendensiyani mustahkamlash uchun kredit portfelining sifati ustidan monitoringni kuchaytirishi, qarzdorlarning moliyaviy holatini doimiy tahlil qilishni davom ettirishi zarur.

Bank tizimining kredit portfeli va muammoli kreditlarining dinamikasini Seasonal ARIMA (SARIMA) modeli asosida prognoz qilish hozirgi davrda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit portfeli – bu banklarning asosiy daromad manbai bo‘lib, uning hajmi va sifati bankning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va ishonchliligini belgilab beradi. Kreditlar hajmi ortayotgan bo‘lsa-da, bu o‘sish doim ham sog‘lom kredit siyosatini anglatmaydi. Shuning uchun SARIMA kabi vaqt qatori modellaridan foydalangan holda kredit portfelining kelgusi oylarda yoki yillarda qanday o‘zgarishini oldindan aniqlash orqali, banklar strategik rejalashtirish, resurslarni taqsimlash va risklarni boshqarish jarayonlarini ancha samarali amalga oshirishi mumkin. Ayniqsa, mavsumiy omillar (masalan, qishloq xo‘jaligi, savdo va qurilish sohalaridagi mavsumiy kredit talabining o‘zgarishi) SARIMA modeli yordamida aniq aks ettiriladi va bu banklarga kredit taqsimoti, likvidlikni boshqarish va daromad prognozlarini to‘g‘ri tuzishda yordam beradi.

Alohida olingan tijorat banklarining kredit portfeli va undagi muammoli kreditlar dinamikasini SARIMA modeli asosida tahlil qilish esa banklararo taqqoslash, individual riskni aniqlash va har bir bankning ichki siyosatini optimallashtirish imkonini beradi. Masalan, ayrim banklarda kredit hajmi barqaror o‘sayotgan bo‘lsa-da, muammoli kreditlar ulushi ham oshayotgan bo‘lishi mumkin, bu esa kredit siyosatining sifati pastligidan dalolat beradi. SARIMA modeli orqali nafaqat kredit hajmidagi mavsumiy tendensiyalar, balki muammoli kreditlarning davriy yoki progressiv o‘sishi aniqlanadi va bu asosda banklar o‘z qarz oluvchilarini baholash mezonlarini kuchaytirish, kafolat siyosatini takomillashtirish yoki inkassatsiya bo‘limlari faoliyatini kuchaytirish choralarini ko‘rishadi. Shuningdek, bu model asosida regulator – Markaziy bank ham



umumiy tizimda yoki muayyan banklarda yuzaga keladigan sistemaviy xatarlarni oldindan ko‘rib, makroprudensial siyosat choralarini ishlab chiqish imkoniga ega bo‘ladi.

-rasm. O‘zbekiston bank tizimida kredit portfelining prognoz ko‘rsatkichlari, mlrd.so‘mda.

SARIMA modeli asosida amalga oshirilgan prognoz natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston bank tizimidagi jami kreditlar hajmi barqaror o‘sish tendensiyasini saqlab qoladi. 2020-yil mart oyida bu ko‘rsatkich 221,9 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil dekabriga kelib 533,1 trln so‘mga yetgan. Prognozga ko‘ra, 2025-yil davomida o‘sish davom etib, yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati 2,5–3% atrofida bo‘ladi. 2026-yil mart oyida kreditlar hajmi 590 trln so‘mni tashkil etishi, 2027-yil martida esa 640 trln so‘mga yetishi kutilmoqda. Nihoyat, 2028-yil mart oyida bu ko‘rsatkich 685 trln so‘m atrofida bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Ushbu o‘sish moliyaviy bozorning kengayib borayotganini, bank tizimining kreditlash salohiyati va mijozlar talabi oshayotganini ifodalaydi. Shu bilan birga, kredit portfelining sifatli boshqarilishi banklar barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.



-rasm. O‘zbekiston bank tizimida muammoli kreditlarning prognoz ko‘rsatkichlari, mlrd.so‘mda.

O‘zbekiston bank tizimida muammoli kreditlar hajmi esa tarixiy davrda ko‘tarilish va pasayish davrlarini bosib o‘tgan. 2020-yil mart oyida muammoli kreditlar 5,02 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil dekabriga kelib bu ko‘rsatkich 21,18 trln so‘mga yetgan. Bu 4 yilda deyarli 4,2 barobar ko‘tarilganini bildiradi. SARIMA modeli prognozlariga ko‘ra, 2025-yilda muammoli kreditlar o‘zgaruvchanlik bilan o‘sishda davom etib, 2026-yil mart oyida 23,5 trln so‘mga, 2027-yil martida 25,6 trln so‘mga yetadi. 2028-yil mart oyida esa bu ko‘rsatkich 27,1 trln so‘mni tashkil etishi kutilmoqda. Bu esa bank tizimida risklarni baholash, kreditlar monitoringini kuchaytirish va samarali kredit siyosatini shakllantirish zaruratini ko‘rsatadi. Kreditlar hajmidagi o‘sish muammoli kreditlar bilan birgalikda oshayotganligi, ularning nisbatini (masalan, 2024-yil dekabrda muammoli kreditlar darajasi 3,97%) doimiy monitoring qilish zarurligini anglatadi.



-rasm. Kapitalida davlat ulishi mavjud bo‘lgan tijorat banklarida kredit portfeli va muammoli kreditlari hajmining prognoz ko‘rsatkichlari, mlrd.so‘mda.

SARIMA modeli asosida 2020-yil martidan 2024-yil dekabrigacha bo‘lgan rasmiy statistik ma’lumotlar asosida prognoz qilingan davlat banklaridagi jami kreditlar hajmi 2025-yil yanvarida taxminan 15,2 trln so‘mni tashkil qilishi kutilmoqda. Ushbu ko‘rsatkich 2026-yil yanvarida 15,8 trln so‘m, 2027-yil yanvarida esa 16,5 trln so‘mga yetishi prognoz qilinmoqda. 2028-yil martiga kelib, kreditlar hajmi 17,2 trln so‘m atrofida bo‘lishi kutilmoqda. Bu esa 2024-yil dekabrdagi 14,34 trln so‘mlik kredit hajmidan deyarli 2,9 trln so‘mga ko‘p bo‘lib, yaqin 3 yilda 20 foizdan ortiq o‘sish kuzatilishini anglatadi. Prognoz chizig‘ida mavsumiylik va qisqa muddatli pasayishlar mavjud bo‘lishiga qaramay, umumiy tendensiya ijobiy, ya’ni kreditlar hajmi bosqichma-bosqich ortib borishi kutilmoqda.

Boshqa tomondan, muammoli kreditlar hajmi ham barqaror o‘sishda davom etishi mumkin. 2024-yil dekabrida muammoli kreditlar hajmi 366,7 mlrd so‘m bo‘lgan bo‘lsa, prognozga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 2025-yil yanvarida 369 mlrd so‘mdan oshib, 2026-yil yanvarida 388 mlrd so‘m, 2027-yil yanvarida 409 mlrd so‘m va 2028-yil martida esa 430 mlrd so‘mga yaqinlashishi kutilmoqda. Ya’ni, uch yillik prognoz davrida muammoli kreditlar hajmi taxminan 63 mlrd so‘mga yoki 17% ga oshishi mumkin. Bu holat banklar uchun kredit risklarini tahlil qilish va kredit siyosatini ehtiyotkorlik bilan yuritish zarurligini ko‘rsatadi. Muammoli kreditlar hajmidagi o‘sish, iqtisodiy muhit, to‘lov intizomi va kredit monitoring tizimlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi mumkin.



-rasm. O‘zsanoatqurilishbank kredit portfelining prognoz ko‘rsatkichlari, mlrd.so‘mda.

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, O‘zsanoatqurilish bankining jami kreditlar hajmi 2020-yil mart oyida 31 669 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil dekabriga kelib bu ko‘rsatkich 65 498,4 mlrd so‘mga yetgan. Ushbu davr mobaynida kredit hajmi deyarli ikki baravarga o‘sdi. Seasonal ARIMA modeli asosida amalga oshirilgan prognoz natijalariga ko‘ra, kreditlar hajmi 2028-yil mart oyiga borib 89 600 mlrd so‘mga yetishi kutilmoqda. Bu esa 2024-yil dekabrdagi ko‘rsatkichga nisbatan taxminan 36,7% ga o‘sish demakdir. Model kreditlar hajmidagi mavsumiy tebranishlarni ham inobatga olgan bo‘lib, har chorakda ma'lum darajadagi o‘sish sur’atlarining o‘zgarib borishini aks ettiradi. Ayniqsa, 2025 va 2027-yillar oralig‘ida biroz sekinlashgan, ammo barqaror o‘sish tendensiyasi kuzatiladi.



-rasm. O‘zsanoatqurilishbankda muammoli kreditlarning prognoz ko‘rsatkichlari, mlrd.so‘mda.

Yuqoridagi rasmda muammoli kreditlar hajmidagi dinamikani ko‘rsatadi. 2020-yil mart oyida ushbu ko‘rsatkich 331,6 mlrd so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yil aprel oyida u eng yuqori nuqtaga chiqib, 2 982,0 mlrd so‘mga yetgan. Bu bank muammoli kreditlari hajmi 4 yil ichida 9 baravar ortganini anglatadi. Prognoz natijalariga ko‘ra, 2028-yil mart oyiga kelib bu ko‘rsatkich 3 300 mlrd so‘m atrofida bo‘lishi kutilmoqda, ya’ni muammoli kreditlar hajmi ortishda davom etadi, lekin o‘sish sur’ati nisbatan barqarorlashadi. Modelda 2025-yil boshlarida muammoli kreditlar sezilarli darajada yuqorilashi, ammo 2026-yildan boshlab ularning asta-sekin pasayishi va stabil holatga tushishi taxmin qilinmoqda. Bu esa bankning risklarni boshqarish mexanizmlarini mustahkamlashi zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston tijorat banklarida kredit portfeli sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida:

tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiyalash, barqaror to‘lov intizomi va ichki talabni rag‘batlantirish asosida portfel sifati va risklarni boshqarish maqsadida brutto kreditlar tarkibida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushini oshirish ilmiy asoslandi;

pul bozori instrumentlari ta'sirchanligini ta'minlash vositasida tijorat banklari kreditlari va foiz siyosatini samarali olib borish orqali bank kredit portfelini optimallashtirish ilmiy asoslandi;

transformatsiya jarayoni natijasida tijorat banklari kredit portfelini bozor mexanizmlari asosida shakllantirish maqsadida banklar kredit portfelida davlat tashkilotlariga ajratilayotgan kreditlarni kamaytirish va xususiy sektor ulushini oshirish taklif etildi;

AT O‘zsanoatqurilishbank kredit portfelini oshirishning, hamda muammoli kreditlar holatining inflyasiya darajasi o‘zgarishi bilan bog‘liq jihatlarini ifodalovchi ekonometrik baholash modeli asosida 2028 yil mart oyiga qadar prognoz ssenariylari taklif etildi.

tijorat banklarida kredit portfelini optimallashtirishda tashqi risklarni samarali boshqarishda maqsadida kredit foiz siyosatini yuritishda iqtisodiyotdagi inflyasiya darajasining oylik bir foizga oshishi bir oylik kechikish bilan O‘zsanoatqurilishbank ATBning kreditlari foizini -0,11 foizga pasaytirishini inobatga olish taklif etildi;

banklarda kredit portfeli rentabelligini oshirish, muammoli kreditlar bilan ishlay jarayonlarini yaxshilash maqsadida kreditlarni restrukturizatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish taklif etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сон Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг 2018 йил 31 июлдаги қарори.
4. Jumaev N.X. (2020). O‘zbekiston banklarida kredit qo‘yilmalarining tarkibi va risklari.
5. Toshboev M.M. (2019). Kredit portfeli risklarini boshqarish strategiyalari.
6. Madrahimov Sh.S. (2018). Kredit portfeli muammolarini aniqlash va tahlil qilish.
7. Xakimov X.Y. (2021). Kredit portfeli sifatini oshirishning nazariy asoslari.
8. Karimov N.M. (2022). Kredit portfeli diversifikatsiyasi usullari.
9. Ozili, P.K. (2019). Non-performing loans and financial development.
10. Ferreira, C. (2022). Determinants of non-performing loans.

11. Phung, Q.T. et al. (2022). Do non-performing loans impact bank efficiency?
12. Radivojević, N. et al. (2019). Econometric model of NPL determinants.
13. Serrano, A.S. (2021). Impact of NPLs on bank lending in Europe.
14. Rose, P.S., & Hudgins, S.C. (2013). Bank Management & Financial Services.
15. Greuning, H.V., & Bratanovic, S.B. (2009). Analyzing Banking Risk.
16. Hull, J.C. (2015). Risk Management and Financial Institutions.